



Ta'limni rivojlantirish  
respublika ilmiy-metodik  
markazi

# TA'LIM MUHITINING TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI



XALQARO  
ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA

2025-YIL  
16-APREL

# “TA’LIM MUHITINING TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY O’QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O’RNI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYA

## AXBOROT XATI

### KONFERENSIYA HAQIDA

Konferensiyaga olimlar, soha mutaxassisleri, oliy ta’lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta’lim tashkiloti rahbar kadrlari va pedagoglari, ilmiy izlanuvchilar, magistrilar, iqtidorli talabalar va barcha qiziquvchilar ishtirok etish uchun taklif etiladi!

**Konferensiya o’tkazilish joyi va vaqti:** 2025-yil 16-aprel kuni, Toshkent shahridagi “Hilton Tashkent City”.

**Konferensiyaga materiallar qabulining so’nggi kuni:** 2025-yil 10-aprelga qadar.

**Konferensiya tili:** o’zbek, rus, ingliz.

**Konferensiyaning maqsadi:** Ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayonini raqamli asr talablariga moslashtirish va globallashtirish sharoitida barqaror shaxs rivojlanishini shakllantirishga xizmat qiluvchi ilg’or pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va innovatsion yondashuvlarni o’rganish va ilmiy jihatdan muhokama qilish, xorijiy tajribalarni o’rganish hamda xalqaro olimlar bilan hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash.

### KONFERENSIYANING ILMIIY YO’NALISHLARI

- Ta’limni raqamlashtirish: platformalar, innovatsion texnologiyalar va sun’iy intellekt.
- Interfaol ta’lim resurslari va multimedia vositalari: raqamli resurslar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va STEM.
- Ta’lim ishtirokchilarining raqamli kompetensiyalarini oshirish istiqbollari.
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: o’qitishning yangi usullari va ta’limda inklyuzivlikni ta’minlash.
- Ta’limda raqamli boshqaruv: standartlar, talablar va ta’lim statistikasini yuritish masalalari.

## RO'YXATDAN O'TISH VA KONFERENSIYA MATERIALLARINI TAQDIM ETISH

---

Konferensiyaga professor-o'qituvchilar, doktorantlar, izlanuvchilar, metodistlar, pedagoglar, magistrantlar, talabalar va ta'lim tizimidagi barcha muassasalar xodimlari hamda soha mutaxassisleri ilmiy maqola va tezislarni yuborishlari mumkin.

Maqola va tezislar elektron shaklda **2025-yil 10-aprelga** qadar [raqamlitalim.trm.uz/conference](http://raqamlitalim.trm.uz/conference) veb-manzili orqali qabul qilinadi.



Xorijlik mualliflarning ilmiy maqola va tezislari [trmpedtech@gmail.com](mailto:trmpedtech@gmail.com) elektron pochta manzili orqali qabul qilinadi.

## KONFERENSIYA MATERIALLARINI RASMIYLASHTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

---

Maqola va tezisda muallifning tadqiq qilinayotgan muammoga o'z qarashlari to'liq aks etishi, aniq ilmiy xulosalari, amaliy taklif va tavsiyalari keltirilishi zarur. Materiallar o'zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi.

Matn formati Microsoft Word, satr oralig'i 1,5 intervalda, shrifti Times New Roman 14 kegel. Matn formatining chegarasi tepa va pastdan 2,0 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm hamda matn kengligi bo'yicha tekislangan bo'lishi lozim.

Maqolaning tepa qismida qator o'rtasida bosh harflar bilan mavzu, satr qoldirib o'ng burchagida muallif haqida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi zarur: familiyasi, ismi, ishlash joyi, ilmiy darajasi va unvoni, talabalar uchun ta'lim olayotgan joyi, yo'nalishi va mutaxassislik nomi, elektron pochta manzili. Satr qoldirib, annotatsiya, kalit so'zlar, asosiy matn va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yozilishi talab etiladi.

Tezis mualliflari 3 (uch) nafardan oshmasligi lozim. Har bir muallif mualliflik hissasi 1 (bir) koeffitsiyentgacha tezis yoki maqolalar taqdim etishi mumkin.

Havolalar (snoska) sahifa so'ngida beriladi. Tezis hajmi 3-5 bet bo'lishi hamda qaysi sho'bagaga tegishliligi maqolaning nomlanishida keltirilishi kerak (masalan: 1-Sh.Sagdullayev).

Ushbu talablarga javob bermaydigan ilmiy maqola va tezislari qabul qilinmaydi. Matnda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi

uchun javobgarlik muallif zimmasida bo'ladi. Tashkiliy qo'mita qabul qilinmagan tezislarni mualliflarga qaytarish va izoh berish majburiyatini olmaydi.

Taqdim etilgan tezislar mazmuni belgilangan talablarga mos kelgan taqdirda konferensiya to'plamiga kiritiladi va Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi rasmiy sayti ([www.trm.uz](http://www.trm.uz)) hamda ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilinadi.

## **TASHKILIY QO'MITA MANZILI**

---

**Tashkilot:** Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi

**Manzil:** 100204, Toshkent shahri, A.Navoiy ko'chasi, 30-uy.

**Telefon:** +998555190202 (ichki raqam 1040, 1041, 1044)